

YOSHLARGA E'TIBOR KELAJAKKA E'TIBOR

Maxambatqulova Sabrina Abulqosim qizi

Ohongaron tumani 1-sonli kasb-hunar maktabi o'quvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yoshlarga qoida davlat siyosatini ijrosi yuzasidan yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar va shart-sharoitlar haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Yoshlar, "Yoshlar balansi", "Yoshlar daftari", strategiya, tendensiya, qadriyat, imtiyoz, qo'llab-quvvatlash, odob-axloq.*

Respublikamizda yosh avlodni tarbiyalash, ularning huquq va manfaatlarini himoyalashdek muhim masalalar yuzasidan xorijiy hamkorlar bilan ishlash juda zarurdir.

Ma'lumki, har qanday mamlakatning kelajagi so'zsiz yosh avlodning tarbiyasi va taraqqiyoti bilan bog'liq. Shuni anglash kerakki, zamonaviy bozor munosabatlari va global tendensiyalar yosh avlodning hayotiy qadriyatlariga va axloqiy qoidalariga ta'sir ko'rsatadi. Ammo ular hamisha ham ijobiy va yaratuvchilikka olib kelmaydi. Bu esa tashvishlanarli holdir.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasida yoshlar huquqlari bo'yicha konventsiya qabul qilish zarurligi borasida bildirgan tashabbusi, davlatlarning yoshlarning taqdiri va kelajagi borasida mas'uliyatni o'z zimmalariga olishga chaqiriq bilan chiqqan edi. Bugungi kunda O'zbekistonda aholi umumiy sonining 60 % dan ortig'ini 18 million kuchli, shijoatga ega, g'ayrati ichiga sig'magan yosh fuqarolar tashkil etadi. Aynan mana shuning uchun, yoshlar siyosati davlat taraqqiyotining davomiyligini ta'minlashga qaratilgan barcha strategiyalarida namoyon bo'ladi. O'zbekistonda yoshlarning hayotiy maqsadlarini hayotga tatbiq etishlari uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlar yaratilib kelinmoqda. Yoshlar muammolari davlat siyosati darajasida hal qilinmoqda. Davlat rahbari tashabbusi bilan O'zbekiston tarixida ilk bor 30 iyun "Yoshlar kuni" deb e'lon qilindi.

"O'zbekiston Respublikasida yoshlar kunini belgilash to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. So'ngi 5 yil davomida yoshlar masalalariga oid 40 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida yoshlar masalalari bo'yicha komissiya, "Yoshlar klubi" va "Yoshlar parlamentlari" tuzildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bevosita tashabbusi va amaliy ko'magi bilan mamlakatimizda yoshlar bilan ishlash mutlaqo yangicha tizim asosida yo'lga qo'yildi. Ayniqsa, 2021-yilda "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" davlat dasturi, "Yoshlar daftari", "Yoshlar dasturlari"ning amalga oshirilishi yoshlarning hayotda o'z o'rinlarini topishiga zamin yaratdi. 2021-yilda yoshlarni

qo'llab-quvvatlashga qaratilgan 47 ta normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ushbu hujjatlar asosida yoshlar uchun joriy etilgan 44 ta imtiyoz va qulayliklar "Yoshlar portali"ga kiritilib, bir qator amaliy natijalarga erishildi.

Jumladan, yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha 2021-yil boshida Davlat xavfsizlik xizmati, mutasaddi vazirliklar va hokimliklar bilan hamkorlikda mahallabay shakllantirilgan

"Yoshlar balansi" asosida 621 ming 709 nafar yoshlar "Yoshlar daftari"ga kiritildi. Kasb-hunar o'rgatish, imtiyozli kreditlar, yer maydonlari, subsidiyalar ajratish va ijtimoiy-moddiy qo'llabquvvatlash natijasida 595 ming 970 nafar (96 foiz) yoshlar bandligi ta'minlandi va 25 ming 739 nafar imkoniyati cheklangan, tibbiy yordamga muhtoj yoshlar doimiy nazoratga olindi. Yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tuman (shahar)larda moliyaviy manbalari aniq belgilangan "Yoshlar daftari" jamg'armalari tashkil etilib, mahalliy byudjetning orttirilgan qismi

(15 foiz) va ijro hujjatlariga oid undiruvlar hisobidan 382,8 mlrd so'm mablag' shakllantirildi. Jamg'armalar hisobidan ishsiz yoshlarga asbob-uskuna, mehnat qurollari, urug'lik va ko'chat xarid qilish uchun subsidiyalar ajratish, noturarjoylar ijarasi va boshqa yo'nalishlarda 137 ming nafar yoshlarga 290 mlrd so'm miqdorda amaliy yordam ko'rsatildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarga yer ajratish tashabbusi bilan ilk marotaba 424 ming nafar yoshlarga (*shundan, 208 ming nafari "Yoshlar daftari"ga kiritilgan*) 127 ming gektar ekin maydonlari ajratilib, 681 mingga yaqin ish o'rinlari yaratildi. Yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish tizimli yo'lga qo'yildi. Yil davomida 52 ming nafar yoshlar kasb-hunar va 140 ming nafar yoshlar tadbirkorlikka o'qitildi. Xususiy korxonalar va tashkilotlarda 25 yoshdan oshmagan ishchixodimlarni ishga qabul qilishni rag'batlantirish maqsadida ijtimoiy soliq summasini byudjetdan to'liq qaytarib berish amaliyoti joriy etilishi natijasida 2671 ta korxonaga 20 mlrd 668 mln. so'm qaytarildi. Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha yoshlar tadbirkorligini mikrokreditlashning yangi tizimi joriy etilib, 132 ming nafar yoshlarning

(*shundan, 58 044 nafari "Yoshlar daftari"ga kiritilgan*) tadbirkorlik loyihalari uchun 3,3 trln so'm (*bir loyihaga o'rta hisobda 25 mln so'mdan*) imtiyozli kreditlar ajratish orqali 130 mingta yangi ish o'rinlari yaratildi. Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 30-iyun "Yoshlar kuni" munosabati bilan yurtimiz bo'ylab 6 mln dan ortiq g'ayrati baland, intiluvchan yoshlar ishtirokida "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" festivallar o'tkazildi. Festivallar yoshlar uchun yetuklik va haqiqiy vatan'arvarlik ko'rigi bo'ldi. Yil davomida erishilgan natijalar sarhisobi va istiqboldagi rejalarni belgilash hamda Yangi O'zbekiston strategiyasini yoshlar orasida keng targ'ib qilish maqsadida "O'zbekiston yoshlari forumi-2021" tadbir va loyihalari yangi mexanizm asosida noyabr-dekabr oylarida mahalla-sektor-hudud-respublika darajasida tashkil etildi.

Besh muhim tashabbus doirasida 51 651 ta sport inshootlari, 826 ta madaniyat markazlari, 10 ming 8 ta umumta'lim maktablarida yoshlarni madaniyat

va san'at hamda sportga jalb etishga qaratilgan 41 mingta to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilib, 1 mln. 100 ming nafar yoshlar jalb qilindi. "IT" va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida 198 ta Raqamli texnologiyalar o'quv markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi. "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida 1,2 mln nafardan ortiq yoshlar kom'yuter dasturlash asoslariga be'ul o'qitilmoqda. Shundan, 534 ming nafari o'qishni muvaffaqiyatli tamomladi. Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish maqsadida "Yosh kitobxon" tanlovida 300 ming nafar yoshlar, "Yosh kitobxon oila" tanlovida 10 mingta yosh oilalar ishtirok etdi. Shuningdek, yil davomida 1,2 mln. dan ortiq kitoblar yoshlarga yetkazib berildi. Bugungi kunda Prezidentimizning tashabbusi bilan mahallalardagi yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish maqsadida Respublika bo'yicha mahallalarda 9309 nafar shijoatli yoshlardan tashkil topgan yoshlar ishlari agentligi vakillari "Yoshlar yetakchisi" shtat birliklari tashkil qilindi. Hozirgi kunda ushbu yoshlar yetakchilari tomonidan mahallalarda uyushmagan yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish va ularning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda chora-tadbirlarni tashkil qilish maqsadida so'rovnomalar o'tkazilmoqda. Yangi O'zbekistonda yoshlar siyosatini qurishda mamlakat Prezidentining shaxsan ishtirokini alohida ta'kidlash kerak. Davlat rahbari tomonidan yosh avlodni shakllantirishning dastlabki pallasida tarbiya masalalariga alohida ehtibor qaratilmoqda. Jumladan, Shavkat Mirziyoyev lavozimga kirgan paytdan boshlab boshlang'ich, o'rta va oliy tahlim islohoti bilan shug'ullanmoqda. Aynan oliy tahlim muassasalarida to'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan talaba yoshlar uchun ta'lim krediti ajratishning yangi tizimi yo'lga qo'yilib, bugungi kunga qadar 11 mingga yaqin yoshlarga 100 mlrd so'mga yaqin imtiyozli ta'lim kreditlari ajratilgan. Yoshlarning ilmiy-innovatsion faoliyati, xorijiy tillarni o'rganishini rag'batlantirish maqsadida "Ibrat tillar oromgohi", "Bo'lajak olim", "O'zbekiston uchun 100 g'oya" loyihalariga 63,5 mlrd so'm mablag' yo'naltirilib, tanlovlarda 52 ming nafar iqtidorli yoshlar qamrab olindi "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali 371 nafar yoshlarning xorijiy davlatlarning nufuzli oliy ta'lim muassasalariga tahsil olish va stajirovka o'tashlari uchun 140 mlrd. so'm miqdorida mablag' ajratildi. "Talabaga madad" loyihasidan to'lov-kontrakt mablag'ini to'lab berishda amaliy yordam so'rab murojaat qilgan talaba yoshlar soni 20 760 nafarni tashkil etadi. Shundan, 3 017 nafariga to'lov-kontrakt mablag'lari to'lab berildi. Bundan tashqari, "Yoshlar daftari" tizimi orqali 8 259 nafar yoshlarga 30 mlrd so'mdan ortiq mablag' to'lab berildi.

2022-yil 28-yanvar kuni Maktab ta'limini rivojlantirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida "Umuman, o'qitish metodikasi, darsliklari, partadan tortib, binosigacha to'liq qayta ko'rib chiqamiz. Ta'limga, muallimga sharoit yaratmasak, jamiyat o'zgarmaydi",- dedi Sh.M.Mirziyoyev. Aynan kelgusi besh yilda 1 million 200 ming o'quvchi o'rni tashkil etish zarurligi, ta'lim sifatini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha katta islohotlar boshlanishi to'g'risida belgilab olingan vazifalardan Yangi O'zbekistonda ta'limga va yoshlarga

bo'lgan e'tibor ortib borishidin dalolat bermoqda. Yoshlarni yuksak axloq va intizomli qilib tarbiyalash, ularning sifatli ta'lim olishiga va vatanparvarlik ruhida voyaga yetishiga mamlakat iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining kaliti hisoblanadi. Bu ijtimoiy barqarorlik va muvaffaqiyatning asosidir. G'oyalar birligi asosida maqsadga yo'nalgan, jipslashgan yoshlarni tarbiyalash bizning asosiy maqsadlarimiz hisoblanadi. Bugungi kunda xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyalar va hamkorliklarni tashkil qilish mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning mehyorlari va mexnazimlari borasida yangicha qarashlar va takliflarni kiritishni nazarda tutadi. Aynan Osiyoda o'zaro ishonch choralari bo'yicha Kengashning Yoshlar ishlari bo'yicha maslahat Kengashiga O'zbekiston teng huquqli a'zo bo'ldi. Germaniyada o'tkazilgan "One Young World Summit-2021"da O'zbekiston yoshlari delegatsiyasi ilk marotaba ishtirok etib, Sammit a'zoliciga qabul qilindi. Turkiy tilli davlatlarning yoshlar va s'ort ishlari vazirlari ishtirokida ilk marotaba Toshkent shahrida "IDEA – Yosh tadbirkorlar forumi" o'tkazildi. Forum yakunida O'zbekistonni 2022-yilda turkiy dunyo yoshlari poytaxti etib belgilash tashabbusi ilgari surildi. MDHga a'zo mamlakatlarning Yoshlar ishlari bo'yicha Kengashining 28-yig'ilishi 29-30-aprel kunlari Toshkent shahrida tashkil etildi.

Shuningdek, Toshkent shahrida "Global harakatlarga yoshlarni jalb qilish" mavzusida Yoshlar huquqlari bo'yicha butunjahon konferensiyasi o'tkazilib, unda Toshkent Yoshlar deklaratsiyasi qabul qilindi. 2021-yilning 12-13-avgust kunlari Toshkent shahrida "Global harakatlarga yoshlarni jalb qilish" mavzusidagi Yoshlar huquqlari bo'yicha butunjahon konferensiyasi o'tkazildi. Unda 30 dan ortiq mamlakat va xalqaro tashkilotlardan vakillar, eks'ertlar, olimlar, huquqshunoslar, yoshlar masalalari bo'yicha mutasaddilar ishtirok etdi. 2021-yilda 8 ta (AQSH, Germaniya, Turkiya, Rossiya, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston) xorijiy davlatlarga 13 ta yoshlar delegatsiyalarining tashrifi uyushtirilgan. Mamlakatimizga yoshlar masalasi bo'yicha 43 ta tashrif amalga oshirilib, 201 nafar xorijiy yoshlar delegatsiyalari qabul qilingan.

Mamlakatimizda yoshlar masalasi bo'yicha xalqaro tajriba almashinuvi esa yoshlar manfaatlarini kuchaytirishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga olib ko'taramiz. T.: 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston. 2016.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 04.10.2021 yil 617son Qarori.